



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-may



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-may oylari)




Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi - **49,5%**



Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi –
2 940,2
ming so'm




Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi - **66,7%**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- iyun holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-may)




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- iyun holatiga ko'ra)




Soni, birlikda




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-may)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-may oylari)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-may oylari)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati ¹⁾	2 693,3	100,0	111,0
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	1 204,2	44,7	116,4
Shirin	35,6	1,3	114,0
Yangiyer	187,5	7,0	115,1
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	231,1	8,6	102,4
Guliston	115,3	4,3	105,5
Mirzaobod	114,9	4,3	105,9
Oqoltin	98,1	3,6	106,2
Sardoba	102,8	3,8	106,9
Sayxunobod	114,2	4,2	103,6
Sirdaryo	364,0	13,5	109,0
Xovos	125,6	4,7	104,2

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-may oylari)




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-may oylari)

Hajmi, ming so'mda O'sish sur'ati


Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Guliston shahri	12 077,9	112,7%
Yangiyer shahri	3 897,3	112,2%
Sirdaryo tumani	2 649,6	107,1%
Shirin shahri	1 835,4	113,4%
Oqoltin tumani	1 755,9	104,6%
Boyovut tumani	1 661,3	100,5%
Sardoba tumani	1 459,7	105,4%
Guliston tumani	1 444,9	103,1%
Mirzaobod tumani	1 423,5	104,0%
Sayxunobod tumani	1 377,7	102,3%
Xovos tumani	1 223,8	102,3%

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-may oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **49,5** foizni, shu jumladan, **22,4** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-may oylari)



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari


(2024- yil yanvar-may oylari)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	2 693,3	100,0	111,0
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	167,0	6,2	115,3
Moliyaviy xizmatlar	882,2	32,8	106,7
Transport xizmatlari	337,3	12,5	117,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	312,6	11,6	115,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	80,7	3,0	112,7
Savdo xizmatlari	579,2	21,5	107,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	67,9	2,5	111,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	102,6	3,8	110,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	68,6	2,5	105,9
Ijara xizmatlari	43,3	1,6	112,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	62,9	2,3	111,9
Shaxsiy xizmatlar	56,2	2,1	104,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	25,7	1,0	120,4
Boshqa xizmatlar	219,7	8,2	131,6

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-may oylari)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-may oylari, mlrd. so'mda)

Guliston shahri	547,6
Sirdaryo tumani	69,1
Boyovut tumani	63,6
Oqoltin tumani	36,9
Sayxunobod tumani	36,3
Guliston tumani	29,9
Sardoba tumani	29,9
Xovos tumani	28,8
Yangiyer shahri	24,2
Mirzaobod tumani	9,6
Shirin shahri	6,3

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-may oylari)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-may oylarida 93,7** foizni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi **62,1** foizni yoki **547,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **92,7 %**.

Guliston shahrida transport xizmatlari hajmi **85,2** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **116,7 %** ni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may oylari)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-may oylari)






¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

⚙️ O'sishi

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may oylari)

2024- yil yanvar-may oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **312,6** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **11,6 %** ni tashkil etdi.



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


2024- yilning yanvar-may

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **64,5** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may oylari)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-may oylari)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Sirdaryo tumani	140,0	113,9%
Guliston shahri	130,2	107,9%
Yangiyer shahri	62,3	112,5%
Xovos tumani	42,5	112,4%
Mirzaobod tumani	42,1	111,8%
Boyovut tumani	35,8	78,3%
Sayxunobod tumani	35,1	97,6%
Guliston tumani	28,7	108,0%
Sardoba tumani	27,8	112,9%
Oqoltin tumani	24,5	122,3%
Shirin shahri	10,2	111,4%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-may** oylarida ularning ulushi **93,8** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may oylari)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-may oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

◆ O'sishi


Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-may oylari)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-may** oylaridagi ulushi **65,3 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-may oylari)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-may oylari)

2024- yilning yanvar-may oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **29,1** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-may oylari)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may oylari)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **97,4** foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-may oylari)

Guliston shahri	21,1	105,0%
Sirdaryo tumani	10,6	103,6%
Yangiyer shahri	5,8	118,9%
Oqoltin tumani	5,8	104,8%
Shirin shahri	5,7	104,7%
Sayxunobod tumani	5,0	3,5M%
Sardoba tumani	4,8	104,5%
Xovos tumani	4,0	104,2%
Mirzaobod tumani	3,5	104,6%
Guliston tumani	0,9	104,7%
Boyovut tumani	0,7	104,9%


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2024- yilning yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **92,0** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar - may oylari)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar - may oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar – may oylari)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar – may oylari, mlrd. so'mda)



2020- yilning yanvar - mayiga nisbatan


o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **23,5** mlrd. so'mga oshib, **43,3** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar - may** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **42,3 %** ni tashkil etdi.




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar – may oylari)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 28,8 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar – may oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi

Shaxsiy xizmatlar dinamikasi (yanvar-may oylari)



Hududlar kesimida shaxsiy xizmatlar (2024- yil yanvar – may oylari, mlrd. so'mda)



2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida shaxsiy xizmatlar hajmi **9,8** mlrd. so'mga oshib, **56,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida sartaoshlik xizmatlari ulushi **77,6** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.